

BOLANING RIVOJLANISHIDA IJTIMOY MUHIT TA'SIRI

Yusupova Shaxzoda Sobir qizi

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Sanginova Gulnoza Boxodirovna

Ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi

shaxzodayusupova29@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20157262>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxs sifatida shakllanishida ijtimoiy muhitning o'rni va ijtimoiylashuv jarayonining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda ijtimoiylashuv – insonning butun hayoti davomida kechadigan ko'p qirrali jarayon ekanligi, ayniqsa, bolalik davrida ijtimoiy-axloqiy me'yorlarni o'zlashtirish nihoyatda jadallik bilan kechishi ilmiy asoslab berilgan. Maqolada bolaning ijtimoiy rivojlanishidagi asosiy muhitlar — oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti, maktab va mahalla tizimining o'zaro bog'liqligi hamda ularning tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlari, jumladan, "Ilk qadam" davlat dasturi va bolalarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid davlat talablarining ijrosi masalalariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiylashuv, ijtimoiy muhit, maktabgacha yoshdagi bola, ijtimoiy kompetensiya, oilaviy tarbiya, axloqiy qadriyatlar, "Ilk qadam" dasturi, ijtimoiy moslashuv, shaxs rivojlanishi.

KIRISH

Bolaning shaxsiyatining rivojlanishi turli xil faoliyatlarda, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilishda eng samarali hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy rivojlanishini umumiy tushunchasiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ijtimoiylashuv — bu maktabgacha yoshdagi bolalarning jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy-axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirish jarayonidir.

Ijtimoiylashuv — bu butun hayot davomida davom etadigan doimiy jarayondir. Maktabgacha bolalikda bu, birinchi navbatda, ijtimoiy hayot me'yorlarini o'zlashtirishdir.

Ijtimoiy kompetensiya — hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahoratidir.

Ijtimoiylashuv insonning butun hayoti davomida kechadigan ko'p qirrali jarayondir. U, ayniqsa, bolalik va yoshlik davrlarida nihoyatda jadallik bilan kechadi. Chunki shaxs tomonidan aynan bolalik davrida asosiy ijtimoiy me'yorlar o'zlashtiriladi.

Bola ijtimoiylashuvida ijtimoiy muhit muhim ahamiyatga ega. Bu ijtimoiy muhitni bola asta-sekinlik bilan o'zlashtiradi.

Agar bola tug'ilgandan keyin asosan oilada rivojlansa, uning keyingi rivojlanishi turli muhitlarda — maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, maktabdan tashqari tarbiya tashkilotlari va turli ko'ngilochar maskanlarda kechadi.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishida yetakchi o'rinni o'z xalqining axloqiy qadriyatlarini o'zlashtirish va keyinchalik umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni bilish hamda egallash egallaydi.

Ijtimoiy taraqqiyot bilan chambarchas bog'liq holda maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy tarbiyasi shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy xatti-harakatlari tajribasi kattalar bilan muloqot jarayonida shakllanadi va tengdoshlari bilan turli xil qo'shma tadbirlar hamda munosabatlarda mustahkamlanadi.

Pedagogika fanida ijtimoiy muhit bola tarbiyasida passiv emas, balki faol vosita sifatida talqin etiladi. Bola ijtimoiy muhit ta'sirida axloqiy me'yorlar, odob-axloq qoidalari, milliy qadriyatlar va ijtimoiy rol hamda funksiyalarni egallaydi.

Jumladan, A. Avloniyning fikricha: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir.” Bu fikr ijtimoiy muhitning bola hayotiga ta'siri naqadar chuqur ekanligini ko'rsatadi.

Oila birinchi ijtimoiy muhit sifatida bolaning asosiy tarbiya maktabi hisoblanadi.

Oilada bola birinchi marta muhabbat, mehr, e'tibor, intizom va mehnatga hurmat kabi ijtimoiy his-tuyg'ularni o'zlashtiradi. Ota-onaning ma'naviy-ma'rifiy saviyasi, oila ichidagi munosabatlar madaniyati bolaning xarakteri va dunyoqarashini shakllantiradi.

Shuningdek, oilaviy iqlim bolaning o'zini tutishi, o'zaro munosabatlari va o'ziga bo'lgan ishonchiga bevosita ta'sir qiladi.

Maktab esa bola ijtimoiylashuvida ikkinchi muhim ijtimoiy muhit bo'lib, u bilim, ko'nikma va malakalar bilan birga axloqiy-me'yoriy qadriyatlarni ham shakllantiradi.

O'qituvchining shaxsiy namuna bo'lishi, sinfdagi muhit, ta'lim dasturlarining tarbiyaviy yo'nalishi bolaning ongli va ijtimoiy mas'uliyatli shaxs bo'lib kamol topishiga xizmat qiladi.

Maktab nafaqat bilim berish, balki ijtimoiy moslashuv, muloqot qilish, muammolarni hal etish va guruhda ishlash kabi ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga zamin yaratadi.

Mahalla va jamiyat ham bolaning ijtimoiy muhit sifatida shakllanishida muhim o'rin egallaydi.

Mahallada o'tkaziladigan turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, urf-odat va an'analar bilan tanishish, jamiyatdagi ijtimoiy vazifalarga jalb etilish bolaning ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi.

Ayniqsa, ijtimoiy faollikni shakllantirish, kattalarga hurmat, kichiklarga e'tibor kabi qadriyatlarni anglashda mahalla muhitining ahamiyati beqiyosdir.

O'zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiya qilish davlat ta'lim siyosatining muhim vazifasi hisoblanadi. Uning asosiy yo'nalishlari Prezident, Maktabgacha ta'lim vazirligining qator davlat hujjatlarida aks etgan. 2019-yil 16-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Qonunchilik palatasi tomonidan 22-oktyabrda qabul qilingan va 14-dekabrda Senat tomonidan ma'qullangan “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi Qonunini¹ imzoladi. Qonun maktabgacha ta'lim va tarbiyani, bolalarni o'qitish va tarbiya qilish, ularni aqliy, ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish hamda umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'limning bir qismi sifatida belgilaydi. 2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari² (keyingi o'rinlarda – Davlat talablari) va “Ilk qadam” maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi³ (keyingi o'rinlarda – “Ilk qadam” Davlat dasturi) tasdiqlangan bo'lib, ular ilg'or xalqaro amaliyot asosida ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjatda maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsad va vazifalari, ta'lim-tarbiya faoliyatining asosiy g'oyalari aks etgan hamda bolaning keyingi ta'lim pog'onasiga o'tishidagi asosiy kompetensiyalari aniqlangan.

Farzand – oilaning quvonchi, ota-onaning tayanchi, jamiyatning hayotbaxsh kuchi. Farzand umr mevasi, oila faxri, kelajagi baxtidir. Ammo tarbiya nihoyatda mashaqqatli ish bo'lib ota onalar bolalar tarbiyasida har doim ham istagan natijalarga erishavermaydilar. Ota-onalar bolalarni oilada faoliyatini to'g'ri tashkil qilishda avvalo oiladagi ota-ona tarbiyasi muvaffaqiyatli bo'lishi zarur. Ota-onalar bolaning nazarida obro'ga ega bo'lishi kerak, busiz tarbiya bo'lishi mumkin emas. To'g'ri tarbiya bizning baxtli kelajagimiz, yomon tarbiya bizning kelajakdagi qayg'u xasratimiz, bizning ko'z yoshlarimiz, bizning boshqa kishilar oldidagi, butun jamiyat oldidagi aybimizdir. Ota-onalar bolalarga tarbiya berar ekanlar bo'lajak kasb egalari, bo'lg'usi ota-onalar shaxsini tarkib topdiradilar: buning muvaffaqiyatidan faqat ularning o'zlari emas, balki umuman jamiyat manfaatdordir. Har bir shaxs oilada tug'ilib ijtimoiy hayotga mana shu o'z koshonani orqali kirib borar ekan, demak shaxs tarbiyasining ibtidosi deb uning ona ko'ksidalik payti, ya'ni homila payti-yu va tug'ilgandan atrof-muhitni qamrab olgan uni mana shu hayotga olib kelganoilasi va ota-onasining ilk tarbiyaviy ta'sirlarini aytish joizdir. Farzand – oilaning quvonchi, ota-onaning tayanchi, jamiyatning hayotbaxsh kuchi. Farzand umr mevasi, oila faxri, kelajagi baxtidir. Ammo tarbiya nihoyatda mashaqqatli ish bo'lib ota onalar bolalar tarbiyasida har doim ham istagan natijalarga erishavermaydilar. Ota-onalar bolalarni oilada faoliyatini to'g'ri tashkil qilishda avvalo oiladagi ota-ona tarbiyasi muvaffaqiyatli bo'lishi zarur. Ota-onalar bolaning nazarida obro'ga ega bo'lishi kerak, busiz tarbiya bo'lishi mumkin emas. To'g'ri tarbiya bizning baxtli kelajagimiz, yomon tarbiya bizning kelajakdagi qayg'u xasratimiz, bizning ko'z yoshlarimiz, bizning boshqa kishilar oldidagi, butun jamiyat oldidagi aybimizdir. Ota-onalar bolalarga tarbiya berar ekanlar bo'lajak kasb egalari, bo'lg'usi ota-onalar shaxsini tarkib topdiradilar: buning muvaffaqiyatidan faqat ularning o'zlari emas, balki umuman jamiyat manfaatdordir. Har bir shaxs oilada tug'ilib ijtimoiy hayotga mana shu o'z koshonani orqali kirib borar ekan, demak shaxs tarbiyasining ibtidosi deb uning ona ko'ksidalik payti, ya'ni homila payti-yu va tug'ilgandan atrof-muhitni qamrab olgan uni mana shu hayotga olib kelganoilasi va ota-onasining ilk tarbiyaviy ta'sirlarini aytish joizdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Yusupova Nilufar Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi Alimardanov Jo'rabek Bobonazarovich Ilmiy rahbar: Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi
2. B.S.ABDULLAYEVA, G.B.RIZAYEVA BOLALARNING IJTIMOY MOSLASHUVI
3. Kaxxorov Beknazar Xusan O'g'li Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali Ijtimoiy yo'nalishi4-kurs talabasi]